

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITET

KARIMOV NODIRBEK SHUXRAT O‘G‘LI

LI MUNYOL QISSA VA HIKOYALARI BADIYYATI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.531: 82 - 32
КБК: 83.3: 84 - 44(5Kor)
К - 21

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Karimov Nodirbek Shuhrat o‘g‘li

Li Munyol qissa va hikoyalari badiiyati.....5

Каримов Нодирбек Шухрат угли

Поэтика повестей и рассказов Ли Мунёля.....27

Karimov Nodirbek Shuhrat o‘g‘li

The Poetics of the Novellas and Short Stories of Lee Mun Yeol.....55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

KARIMOV NODIRBEK SHUHRAT O‘G‘LI

LI MUNYOL QISSA VA HIKOYALARI BADIYYATI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil5019 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saydazimova Umida Turaxanovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ziyamuhamedov Jasur Tashpulatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Shodmonov Nafas Namazovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Mirobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 16-uy.

Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Mannonov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.R. Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD),
dotsent

B.To‘xliyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi bugungi globallashuv jarayonida shiddatli rivojlanish yo‘liga kirdi. Shu sababli jahon andozalari asosida badiiy asar poetikasini o‘rganish kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘ziga xos taraqqiyot yo‘liga kirgan, izlanishlar bosqichidan o‘tgan nasriy janrlarga xos badiiy asar poetikasini tadqiq etish, inson ma’naviyati shakllanishidagi rolini aniqlash muhimlik kasb etadi. Zero, “Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o‘zligining, madaniy-ma’rifiy olami, milliy g‘oyasining asosi hisoblanadi”¹. Bebaho xazina – xalq ma’naviyati asosi bo‘lgan adabiyotdagi milliy qadriyatlar, ijodkorning o‘ziga xos badiiy-estetik olami yosh avlod tarbiyasi uchun muhimdir. Umumjahon ijtimoiy ongidagi turfa xil yo‘nalishlar yozuvchining shakldagi izlanishlari hamda milliy tafakkurida o‘z ifodasini topdi.

Dunyo adabiyotshunosligida insonning botiniy va zohiriy olami, qadr-qimmat, shaxsi, murakkab qalb qatlami, hayot haqidagi chuqur falsafiy mushohadasi, inson ruhiyatini teran tahlil qilish masalasi asosiy planga chiqdi. Badiiy adabiyot markazida turgan inson obrazini kashf etish, uning ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy xususiyatlari bilan bog‘liq muammolarni ilmiy talqin qilish, asosli konsepsiyalarni ilgari surishga alohida diqqat qaratilmoqda. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr bo‘lag‘asida nasriy janrlar shakl va hajm jihatdan evrilishlarga uchradi. Ijodkor insonning ma’naviy olami, tafakkuriga xos xususiyatlarini ochib berishda asarga kiritilgan obrazlar tabiatida hayot voqealigini tasvirlash uslubini yangiladi. Janr kompozitsion qurumining o‘zgarishi badiiy obraz, badiiy detal, xronotop – zamon va makonni tasvirlashda yangi tamoyillarga asoslanganligi kuzatiladi. Nasriy asarlar qahramonlarining harakati, voqealar rivojini jonli va ta’sirli tasvirlashda esa davr yozuvchilarining ijodiy usuli to‘liq namoyon bo‘ladi.

XX asrning so‘nggi o‘nyilligi XXI asr boshida koreys adabiyotini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘z davrining buyuk yozuvchisiga aylangan ijodkorlarning ma’naviy merosini o‘rganish, targ‘ib qilishga e’tibor kuchaytirilmoqda. Inson taqdirining turmush chorrahalaridagi murakkab vaziyati, jamiyatning o‘tkir muammolari, inson ruhiyatining tub mohiyati, jamiyatdan *begonalashish*, *yolg‘izlanishning* sabab-oqibatlar, ruhan parchalangan insonning sirli dunyosi kabi masalalar mualliflar tomonidan turli vositalar orqali mohirona tasvirlanmoqda. Koreys milliy adabiyoti taraqqiyotida Li Munyolning o‘z o‘rni bor. Adib yaratgan qissa va hikoyalar koreys xalqining bebaho adabiy boyligi hisoblanadi. Muallif qissa va hikoyalarida an’anaviy motiv va obrazlarning yangi talqini, balandparvoqlikdan xoli nasriy asar bayoni kishini mulohaza qilishga undaydi. Davr haqiqatini kuzatuvlar asosida haqqoniy, samimiy, ro‘y-rost voqealarning badiiy ifodasida bera olgan yozuvchi asarlarida qo‘llanilgan poyezd, avtobus, vagon, kupe kabi yopiq makonlar transport vositasi ma’nosi bilan chegaralanmaydi, balki, o‘zida tarix g‘ildiragi kabi ulkan mazmunni aks ettiradi.

¹ Мирзиёев Ш. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида “Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони”. – Тошкент. 2016 йил. 13 май.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-feraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2017-yil 2-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy koreys adabiyotida inson ichki olami, insoniy qadriyatlar, tarixiy voqelik, odob-axloq va hayot mazmuni masalalariga bag‘ishlangan hikoyalarni o‘rganish XX asrning oxiri, XXI asrning birinchi o‘nyilligidan boshlab ko‘plab olimlarning tadqiqot obyektiga aylandi.

Koreya Respublikasining Kyonggi universiteti tadqiqotchisi An Namyeon² (안남연) “Li Munyol romanlarida estetika va mafkura masalalari” (“이문열 소설 연구 – 본질·미학성장·이데올로기를 중심으로”) nomli tadqiqot ishida adib romanlarida mafkuraviy ziddiyatning tarixiy ildizlari masalasini ilmiy tahlilga tortadi. Tadqiqotchi yozuvchining romanlarida xaos, harbiy davrga bergan bahosida uning yozuvchilik mahorati, estetik tafakkurini alohida ta‘kidlaydi. Li Munyolning davr kishisi sifatida hayot haqiqatining badiiy talqinida an‘anaviy obraz va motivlarni g‘arb adabiyoti ta‘siri bilan uyg‘unlikda bera olish san‘atini alohida e‘tirof etadi.

Vonkvang universiteti tadqiqotchisi Li Soongjin³ (이승진) o‘zining “Li Munyolning “Qahramonlar asri” romani matn tanqidi” (“한 소설 두 텍스트 – 이문열의 소설 “영웅시대” 의 텍스트 비평”) nomli ishida romanning til xususiyatlarini tahlilga tortadi. Tadqiqotchi yozuvchi asarlari bo‘yicha nashr etilgan ilmiy maqolalarda ayrim masalalarga, xususan, asar tili masalasini o‘rganishda qo‘yilgan cheklovlar (ta‘qiqalar)ga tanqidiy fikr bildiradi.

Dankuk universiteti adabiyotshunos olimlari Kim Yonseon hamda Kim Taesularning⁴ (김영선; 김태수) “Zamonaviy sosol (nasr)da harakatlanuvchi makon” nomli tadqiqot ishi Li Munyolning “Ustun va cho‘chqa” hamda Oe Kenzaburoning “Sas yo‘q” hikoyalarning qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlanadi. (“현대소설 공간에 나타난 모빌리티 양상 – 이문열의 “필론과 돼지” 와 오에 겐자부로 의 “人間의 羊” 을 중심으로”) Ishda adib ijodiga ta‘sir ko‘rsatgan ichki va tashqi omillar, xususan, 1960-yillar

² 안남연, 이문열 소설 연구 – 본질·미학·성장·이데올로기를 중심으로, 2011, 경기대학교 대학원.

³ 이승진, 한 소설 두 텍스트 – 이문열의 소설 “영웅시대” 의 텍스트 비평, 2013, 원광대학교.

⁴ 김영선 김태수, 현대소설 공간에 나타난 모빌리티 양상 – 이문열의 “필론과 돼지” 와 오에 겐자부로의 “人間의 羊” 을 중심으로, 2013.

aprel⁵ harakatlari hamda 1980-yillar Kvanju⁶ qo'zg'oloni voqealari dolzarb muammo sifatida o'rganiladi. Tadqiqotchilar Li Munyol hikoyalari zo'ravonlik masalasining asosiy mohiyatini ochib berdilar. Bu masalaga AQSh fuqarosi, kelib chiqishi koreys millatiga mansub tadqiqotchi Park Pilsun⁷ ham o'zining "A Study on the Violence in Lee Mun Yeol's Novels" nomli monografik tadqiqotida batafsil to'xtalib o'tadi. Tadqiqotchi o'z ishida adib hikoyalari uchun tanlagan qahramonlar – maktab o'quvchilari, o'qituvchilar va ishchilarning ijtimoiy mavqeiga emas, balki ularning xulq-atvori, insoniy fazilatlari, ruhiy holatiga e'tiborini qaratgani haqida yozadi. Jumladan, "Qaddi bukik qahramonimiz" ("우리들의 일그러진 영웅") hikoyasida adib uchun muhim masala hisoblangan "hayotda ko'pni ko'rmagan" quyidagi sinf o'quvchisi obrazida adolat uchun kurash, qishloq maktabi tartibotiga bo'ysunmaslik, loqaydlik bilan kelisha olmaslik muammolari yoritilgan. Koreyaning qator tadqiqotchilari bilan birga ukrainalik olimlar ham Li Munyol ijodida zo'ravonlik masalasini ilmiy doiraga tortganlar.

Janubiy Koreya Respublikasining Yonsey universiteti olimi Cho Ju Gvan (조주관) "Достоевский и Ли Мунёль"⁸ tadqiqot ishida rus adibi romani uchun xos "mo'jiza-sir-nufuz" masalalarining koreys adibi romanida "non-mo'jiza-hokimiyat" tarzida ifodalanishini tahlil qildi. Li Munyol ijodini ilmiy tadqiqot doirasiga tortish nafaqat koreys olimlari, balki dunyoning ko'plab davlatlarida ham kuzatiladi. Xususan, rus koreysshunos olimasi, Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi harbiy universiteti xodimi M.V. Soldatova Moskva davlat lingvistika universiteti Harbiy o'quv markazi tadqiqotchisi D.V. Moseychuk bilan hammualliflikda yozgan "Особенности содержания Южнокорейской прозы о корейской войне (1950-1953) как отражение коллективной памяти" maqolasida Li Munyol qalamiga mansub "Xotiralar uchquni" ("타오르는 추억") hikoyasida qishloq ahli nigohida fuqarolar urushi masalasi o'rganilgan.

Li Munyolning qissa va hikoyalari tahlilini amalga oshirishda qissa tahliliga bag'ishlangan Q. Ko'bayev⁹, Yu. Karimova¹⁰, M. Rustamova¹¹ Sh. Odilov¹², X.

⁵ Mamlakatda ijtimoiy hayotda kuchaygan tazyiqlar sabab faoliyati chegaralangan siyosiy partiyalar millatchilik g'oyalari bilan birga kommunizm g'oyalari ham qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Bu vaqtga kelib aksariyat oliy o'quv yurtlari, kollejlar poytaxt shahar Seulning markaziy hududlarida joylashganligi sababli 1960-yil 19-aprelda xalq qo'zg'olonining asosiy ishtirokchilari talabalardan iborat bo'ldi.

⁶ 1987-yil 13-apreldagi konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish haqidagi munozaralar, Buchon politsiya bo'limi tomonidan talabalarining qiynoqlarga olinishi, Pak Jong-Chxolning qiynoqlar bilan o'ldirilishi, Li Xan Yolning ko'zdan yosh oqizuvchi gazdan otish hodisasi butun mamlakat bo'ylab noroziliklarga sabab bo'ldi. Natijada, 1987-yil 10-iyundan 29-iyungacha Janubiy Koreyada butun mamlakat bo'ylab hukumatga qarshi norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi.

⁷ Park Pilsun (2011). A Study on the Violence in Lee Mun-yeol's Novels, The dissertation of the master's degree, 129-p.

⁸ Cho Джу Гван. Достоевский и Ли Мунёль. – Корея. Университет Ёнсей. – 22 с.

⁹ Кўбаев Қ.. Ўзбек киссаларида тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат. Филол.фанл.номз. дисс. – Тошкент. 2006. – 52 б.

¹⁰ Каримова Ю. Пиримкул Қодиров киссаларида маънавий-ахлокий муаммоларнинг бадий талкини. Филол.фанл.номз. дисс. – Тошкент. 2005. – 163 б.

¹¹ Рустамова М. Истиклол даври киссаларининг тараққиёт тенденциялари. Филол.фанл.номз. дисс. – Тошкент. 2005. – 163 б.

¹² Одилов Ш. Кейинги йиллар ўзбек хикояларида замондошимиз образи (70-80 йиллар). Филол.фанл.номз. дисс. автореф. – Тошкент. 1989. – 56 б.

Do‘tsmuhammedov¹³, Sh. Doniyorova¹⁴, F. Radjabova¹⁵ D. Xoldorov¹⁶, hikoya tahliliga bag‘ishlangan D.Z. Muxitdinova¹⁷, P.U. Kenjayeva¹⁸, S.E.Kamilova¹⁹, K.O‘. Hamrayev²⁰, N.S. Qobilova²¹, X. Do‘stmuhammad²² kabi olimlarning tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Jahon adabiyotshunosligida Li Munyol ijodida zo‘ravonlik, rus adibi F. Dostoyevskiy romanlarining koreys adibi romanlari motiviga ta’siri, qishloq aholisi nigohida fuqarolar urushi masalasiga bag‘ishlangan qator tadqiqot ishlari olib borilganiga qaramay, bugungi kunga qadar o‘zbek sharqshunosligida muallifning badiiy-estetik tafakkuri, qissa va hikoyalarida xronotop, diniy-falsafiy ta’limot, yopiq makon va zamon, tarixiy masalalar maxsus ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etilmagan. Xususan, koreys yozuvchisi Li Munyol ijodiyoti umuman, biron-bir monografik tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Sharq mamlakatlari adabiyotshunosligi va qiyosiy adabiyotshunoslik” mavzusida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Li Munyol qissa va hikoyalarida betakror badiiy xususiyatlarni ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

XX asrning ikkinchi yarmi fuqarolar urushi, kaos, sanoatlashtirish, harbiy boshqaruv davrida tashqi va ichki omillar ta’siriga tushgan koreys milliy nasrining tadrijiy taraqqiyoti hamda o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

tarixdan saboq beruvchi ijtimoiy-siyosiy muhit ta’sirida inson xarakterining yangi qirralarini ochishga qaratilgan muallif adabiy-estetik tafakkurini yoritish;

yo‘zuvchining mustabid mafkura, siyosiy jarayonlarni mayllardan xoli tasvirlashdagi mahorati, o‘tkir axloqiy-ma’naviy masalalarni haqqoniy ifodalashi, davr voqeligi badiiy mazmunida millat muammosining ziddiyatli jihatlarini ochib berish;

¹³ Dўstmuxammedov X. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йиллар аввалидаги ҳикоялар мисолида). Филол.фанл.номз. дисс. – Тошкент. 1995. – 53 б.

¹⁴ Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий услубий ўзига хослиги. Филол.фанл.номз. дисс. – Тошкент. 2000. – 163 б.

¹⁵ Раджапова Ф. Истиклол даври ўзбек кинесачилигида услуб ва поэтик тил. Филол. фан. б-ча. ф-фа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент. 2018. – 52 б.

¹⁶ Холдорев Д. Ҳозирги ўзбек кинесаларида бадий услуб муаммоси монография – Тошкент. 2021. – 136 б.

¹⁷ Мухитдинова Д.З. Жўрж Салим ҳикояларида бадий тафаккур эволюцияси. Филол.фанл.номз. дисс. – Тошкент. 2008. – 163 б.

¹⁸ Кенжаева П.У. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қахрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари (Э.Аъзам, Х.Дўstmuxammedov, С. Вафо ҳикоялари мисолида). Монография – Тошкент, 2020. – 128 б.

¹⁹ Камиллова С.Э. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривож. Филол. фан. док. дисс...автореф. –Тошкент, 2016. – 92 б.

²⁰ Ҳамраев К.Ў. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Тошкент, 2018. – 137 б.

²¹ Қобилова Н.С. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс...автореф. – Бухоро, 2020. – 44 б.

²² Дўstmuxammedov X. Ҳикоянинг тақомил йўли. Сарчашма мавжлари. –Тошкент: МАШХУР-ПРЕСС, 2016. – 287 б.

muallif hikoyalarida ijtimoiy illatlar, hayotiy muammolar, inson taqdiri, uning ruhiyatiga xos qalb haqiqati, kelajak avlodning ma'naviy tanazzulini ochib berishda qo'llanilgan yangi obrazlarning mohiyatini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida Li Munyolning "Qaqnus qushi" ("금시조") qissasi, "Xotiralar uchquni", ("추억의 섬광" 2020) "Qaddi bukik qahramonimiz" ("우리들의 일그러진 영웅 한국문학전집", 2017), "Uyga qayta olmaysan" ("그대 다시는 고향에 가지 못하리", 1980) "Yosh yigit portreti" ("내 청춘의 초상", 1981) kabi hikoyalar to'plamlaridan hikoyalar saralanib olindi.

Tadqiqotning predmetini Li Munyol qissa va hikoyalarining badiiy jihatdan tadqiqi misolida zamonaviy koreys nasrida milliy xarakter yaratish, ochiq va yopiq makon, zamon tasvirida voqelikka munosabat masalalarini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, biografik, struktural, sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asrning ikkinchi yarmida uzoq asrlik xitoy madaniyati va san'ati, yapon istilosi davrida kirib kelgan g'arb, yapon va rus adabiyoti, mafkuraviy kurashlar, harbiy boshqaruv davri ta'siriga tushgan zamonaviy adabiyot uchta bosqichda o'rganilgan;

Li Munyol qissa va hikoyalarida ichki urushdan keyin yuzaga kelgan tartibsizliklar, madaniy qatlamdagi turli fikrlilik, ruhiy iztirob, ijtimoiy ziddiyatning inson tabiatiga ta'siri, axloqiy-ma'naviy tanazzul tasvirida muallif konsepsiyasi ochib berilgan;

avlodlar o'rtasida azaliy qadriyatlar to'qnashuvi, jamiyat va insoniyat ziddiyatlari, an'ana va yangilik o'rtasidagi kurash mumtoz davr koreys nasrida yetakchilik qiluvchi uchta diniy falsafiy ta'limot hamda Ustoz-shogird, harbiy boshqaruv davrida askarlik xizmatidan qaytgan olibsotar obrazlarida ko'rib chiqilgan;

muallif qo'llagan ochiq, yopiq makon hamda zamonda koreys jamiyatining qisqa muddatli ozodlik, fuqarolar urushi, mafkuraviy bo'linish, sanoatlashtirish hamda harbiy boshqaruv davri qiyofasi aks etganligi, davr muhitini berishda esa mamlakat armiyasi safiga olinayotgan yoshlar, askarlar, zobitlar, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, ibodatxona tarbiyalanuvchilari, o'tmishini berkitish uchun rohiblik rutbasini kiygan insonlar kabi yangi badiiy obrazlarga murojaat qilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy koreys adabiyotini bosqichma-bosqich o'rganish bo'yicha koreys adabiyotshunosligi metodologik bazasi to'ldirilgan;

g'arb, yapon va rus adabiyotidan ta'sirlangan muallif ijodida davr ruhiyatini berishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

muallif ijodida an'anaviy ustoz-shogird obrazlarining yangi talqini hamda qiyofadosh xarakter yaratish mahorati ko'rsatib berilgan;

yapon istilosi, mafkuraviy bo'linish, xaos, sanoatlashtirish, harbiy boshqaruv davri qiyofasini ochib berishda qo'llanilgan makon va zamon, yangi obraz kabi badiiy vositalar Li Munyol qissa va hikoyalari orqali dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini yurtimizdagi, xorijdagi, shuningdek, adabiyotshunos va tanqidchilarning fikriga murojaat qilinganligi, Li Munyol qissa va hikoyalarining adabiy tahlili qiyosiy-tarixiy metodlari asosida olib borilgani, amaliyotga xulosa va tavsiyalarning tatbiq etilgani tegishli tashkilotlardan olingan tasdiqlar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati adabiy aloqalar, adabiy ta'sir muammolariga doir tadqiqotlar uchun asos bo'lishi, tadqiqot natijasida olingan nazariy xulosalar hikoya janrining rivojini o'rganishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, filologik oliy ta'lim muassasalarida "Adabiyotshunoslikka kirish", "Adabiyot nazariyasi", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti", "Zamonaviy adabiy jarayon", "Badiiy asar poetikasi" kabi fanlarning ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini ilmiy-nazariy jihatdan kuchaytirishda, o'quv qo'llanmalari, darslik va majmualar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy koreys qissa va hikoyalarida tadqiqoti bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

zamonaviy koreys yozuvchisi Li Munyol hikoyalarida davr va inson tasviri, harbiy boshqaruv ijtimoiy muhiti ta'sirida zo'rvonlikka uchragan insonlarning ma'naviy olami, qahramon e'tiqodining o'ziga xos xususiyatlari, adib yaratgan obrazlar tizimida koreys xalqi ruhiyatini anglash kabi masalalarni yoritishda ramziy timsollar, yangi tasvir vositalari bo'yicha olingan ilmiy-nazariy natijalaridan Koreya Respublikasining Konyang Cyber universitetining "2024-yil KF Next Generation Korean Teacher Course" kurs tinglovchilari uchun ma'ruzalar siklida foydalanilgan. (Konyang Cyber universitetining 16-aprel 2024-yildagi 118-39-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Li Munyol hikoyalarining koreys nasri tarixidagi o'rni, mazkur davr insoni botinidagi fojia, hikoya qahramonlari qismati bilan bog'liq voqea-hodisalar tasvirida makon va zamon kabi masalalarning yangi talqini tamoyillarini aniqlashga xizmat qilgan;

yozuvchining "Qaqnus qushi" qissasida ustoz-shogird munosabatlariga oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning "Jahon adabiyoti", "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot" kabi adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning 31-oktabr 2024-yil 04-36-1149 -sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchining badiiy niyati, inson ruhiyatini tasvirlashdagi mahorati, ustoz-shogird botinidagi insoniy qadriyatlar va oliy maqsadlar kabi masalalarga doir umumlashma xulosalarga kelingan;

O'zbekiston-Koreya do'stlik jamiyati tomonidan o'tkazilgan turli ijobiy loyihalarda, yosh ijodkorlar to'garaklar faoliyatida dissertatsiya ishi ilmiy natijalaridan foydalanilgan. ("O'zbekiston-Koreya" Do'stlik va ma'naviy-ma'rifiy aloqalar jamiyatining 2024-yil 7-oktyabrdagi № 11-24-sonli ma'lumotnomasi). Li Munyol hikoyalarida tarixdan saboq beruvchi ijtimoiy-siyosiy muhit, shaxs

hayotidagi ruhiy iztiroblar, qiyinchiliklar, xotiralarda qolgan qaydlarning badiiy talqini masalalarini tahlil qilish zamonaviy koreys hikoyachiligida sifat o'zgarishlar xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Muallifning hikoya yaratish mahorati, hikoyalarida umuminsoniy g'oyalar tasviri, hozirgi koreys hikoyalarining kompozitsiyasi, muallif badiiy g'oyasi, makon va zamon, yopiq va mavhum zamon, o'xshash sarlavhali mavzular syujeti kabi muammolarni ilmiy tahlilga tortish muhimlik kasb etadi. Natijada, koreys va o'zbek xalqlarining ikki tomonlama madaniy, ilmiy munosabatlarini chuqurlashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**XX asr ikkinchi yarmi koreys adabiyotshunosligida nasriy janrlar tavsifi**" deb nomlangan bo'lib, bobning "**Zamonaviy koreys nasriy janrlarining badiiy-tarixiy xususiyatlari**" nomli birinchi faslida XX asrning 1945-1990-yillar koreys jamiyatida yuz bergan mafkuraviy o'zgarishlar davrining adabiyotshunoslikda ma'naviy meros, adabiyot vakillariga ta'siri masalalari ko'rib chiqildi: *"So'nggi 70 yil davomida koreys adabiyotining rivojlanish bosqichlari Koreyaning keyingi tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muhim tarixiy voqealar fonida sodir bo'ldi. Yangi koreys adabiyotining shakllanish jarayoni 1945-yili mamlakat ozod bo'lgan kundan boshlanib, yarim asr davom etdi. Bu davrda koreys adabiyotiga qator tashqi omillar ta'sir ko'rsatdi, natijada adabiyot rivojlanishining umumiy vektorini belgilab berdi"*²³.

XX asrning ikkinchi yarmi koreys adabiyoti global o'zgarishlar fonida quyidagi shartli uch bosqichda ko'rib chiqildi: Mamlakatning mustaqillikni qo'lga kiritgan kundan boshlab 1950-1953-yillar davomida bo'lib o'tgan mafkuraviy

²³ Kim U-Chang. The Situation of the Writers under Japanese Colonialism // Korea Journal. – 1976. – Vol. 16, N 5. – P. 4-15.

urush davrining dastlabki kunlari bilan uzviy bog‘liq **birinchi bosqich** o‘z ichiga 1945-1950-yillarni qamrab oladi. An’anaviy koreys adabiyoti uzoq asrlik xitoy adabiyoti va madaniyati, yapon istilosi davrida jadallik bilan kirib kelgan g‘arb, rus va yapon adabiyoti va madaniyatidan ta’sirlandi. G‘arb adabiyotidan ozuqalangan, rus proletar adabiyotidan ta’sirlanishga ulgurgan bu yillarni koreys adabiy jarayonlarida *o‘tish davri* deb atash maqsadga muvofiq.

Fuqarolar urushi (1950-1953), xaos (1960-yillar), sanoatlashtirish (1970-yillar) davrini o‘z ichiga olgan **ikkinchi bosqich** adabiyoti rivojiga mamlakatning ikki xil mafkura ostida Janub va Shimolga bo‘linib ketishi chuqur ta’sir ko‘rsatdi: “...*ko‘pchilik Janubiy Koreyaning Amerika askarlari tomonidan okkupatsiya qilinganligini oqlashga harakat qilishgan, Janubiy Koreya tuzumini himoya qilishgan*”²⁴. Darhaqiqat, bu davrda yaratilgan qator asarlar o‘zining kommunistik mafkuraga aloqasini yo‘qligini isbotlash uchun yozilgan “*oqlov*”ga (ta’kid bizniki – K.N.) o‘xshaydi.

Mamlakatda millatchilik g‘oyalari bilan birga antikommunizm konsepsiyasi sabab ijtimoiy hayotda tazyiqlar kuchaydi, siyosiy partiyalarning faoliyati chegaralandi: “*1960-yillar Koreya jamiyatida sanoatlashtirishning inqirozga yuz tutishi, aholining shaharlarda zich joylashuvi, qishloq hududlaridagi samarasizlik hamda harbiy hokimiyatning hukmronligi bilan xarakterlanadi*”²⁵.

Koreys jamiyatining barcha sohalarida qayta qurish boshlagan XX asrning to‘rtinchi yigirma yilligidan bugungi kuniga qadar bo‘lgan adabiyotning **uchinchi bosqichi** mamlakatda sodir bo‘lgan sanoatlashtirish siyosatiga bevosita ulanib ketgan harbiy boshqaruv, demokratiya uchun kurashlar girdobida qoldi. Natijada, koreys adabiyoti hukumat yuritayotgan siyosatga qarshi ochiq-oydin ma’naviy kurashga kirishdi. Adabiyotshunos olimlar hamda ijod ahli o‘rtasida yapon istilosi davrida boshlangan harakatning samarasiz natijasi o‘laroq, milliy adabiyotning nazariy masalalari kunning dolzarb muammosiga aylandi. Bu davr adabiyotida nafaqat yangi ismlar kuzatildi, balki eski va yangining to‘qnashuvi natijasida yangi oqimlar vujudga keldi. Milliy, ichki va tashqi omillar ta’siriga tushgan zamonaviy adabiyot badiiy-uslubiy jihatdan takomillashdi.

Bobning ikkinchi “**Li Munyol nasriy asarlarining badiiy xususiyatlari**” nomli faslida XX asrning ikkinchi yarmida ro‘y bergan siyosiy jarayonlar, ijtimoiy hodisalarning badiiy tasviri koreys adibi Li Munyol ijodi misolida ochib berildi. Bolaligi fuqarolar urushi davriga to‘g‘ri kelgan adib moddiy yetishmovchilik hamda ma’nan xastalik sabablarini “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasi orqali qaydlar emas, balki badiiy asar tarzida bayon qiladi: “...*men faxrlanib qatnab yurgan Seulda eng zo‘r maktabni tashlab, provinsiyaning kichik shaharchasida joylashgan bechorahol maktabga o‘tishimga to‘g‘ri keldi. Davlat xizmatida ishlaydigan otam ishxonasida fitnalarga aralashib qolgani bois oilamiz u yerga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi*”²⁶. Mafkuraviy bo‘linish fojiasi hamda uning mudhish oqibatlarini boshidan kechirgan adib o‘zining “Qaddi bukik

²⁴ История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В. 2-томах. – М. 1974. – С. 446.

²⁵ Ким Г. Литература современной Южной Кореи. – Корея. 2011, – С. 3.

²⁶ Ли Мунёль. Наш сломленный герой. – СПб.: Гиперион, 2014.

qahramonimiz” hikoyasida madaniy qatlamda turfa fikrlilikning paydo bo‘lishi²⁷ni mohirona ko‘rsata oldi.

Hayotiy qiyinchiliklar hamda to‘siqlar, “*xiyonatkor ota*” sabab boshidan o‘tkazgan iztiroblar, nohaqliklar “Yosh yigit portreti” (“젊은 날의 초상”) hikoyasi zamiriga joylashtirildi. Adib o‘zining bir shaxs sifatida shakllanish jarayonida *aybsiz aybdorlik* sabablarini aniqlashga, o‘zini doimiy ta‘qib qilgan *qo‘rquv va noma‘lum vaziyatlarni* idrok etishga intilib yashadi: “*Men ta‘qib ostida yashashga majbur bo‘ldim. Maktablarni tez-tez o‘zgartirdim, mashaqqatli hayot va qashshoqlik meni o‘zligimni anglashga turtki berdi...o‘qishni tashlab ketmadim, sarson-sargardon bo‘lsam-da, imtihonlarga tayyorgarchilik ko‘rdim... xullas bu mashaqqatlar meni zohidlik yo‘liga kirita olmadi*”²⁸.

Li Munyolning ijtimoiy ziddiyat, fikrlar qarama-qarshiligini aks ettiruvchi “Qahramonlar asri” (“영웅의 시대”, 1984) qissasida Shimoliy Koreyaga qochib ketgan otaning hayoti obrazli tarzda tasvirlanadi. Yozuvchi qissada o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni to‘kilgan tuprog‘idan voz kechgan, muqaddas oilasini asrab qololmagan, ayoli va farzandlarini himoya qila olmagan, xiyonatkor otaning qismati fojiali yakunlanishiga, albatta, tabiiy hol kabi qaraydi. Ammo shu bilan bir vaqtda u o‘z xotiralarida shunday yozadi: “*Hukmron tabaqa ta‘siri ostidagi otamning tanlovi tarixiy zaruriyat edi, xolos*”²⁹.

Davr bilan hamnafas Li Munyolning “Bashariyat o‘g‘li” romani rus yozuvchisi F. Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” hamda “Aka-uka Karamazovlar” g‘oyaviy romanlaridan ozuqalangan. Rus adibi romani uchun “*mo‘jiza-sir-nufuz*” yetakchilik qilsa, koreys adibi romanida “*non-mo‘jiza-hokimiyat*” yetakchilik qiladi. Dostoyevskiy romanlariga xos xususiyatlardan yana biri bu o‘xshash chehralardir. Jumladan, Raskolnikov-Svidrigaylov, Mishkin-Rogojin, Stavrogin-Pert Verxovenskiy, Ivan-Smerdyakov. Mana shu usuldan unumli foydalangan Li Munyol ham o‘z romanida shunday o‘xshash chehralarni yaratadi: Min Yo Sob-Cho Dong Pxal.

Yozuvchi ijodining gullagan davri 1980-yillarga to‘g‘ri keldi. Adib o‘zi yaratgan har bir asarga bugungi kun nuqtai nazaridan yondashishi hamda prizmasidan o‘tgan hayotiy voqealarni badiiy voqealikka aylantira olish mahorati unga ijodiy mashhurlik olib keldi. Bu davrda yaratilgan hikoyalarda ijtimoiy tengsizlik, jamiyat va inson, tabiat va inson, fuqarolar urush fojialari, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari qismati, Janubiy Koreya armiyasi safida xizmat qilgan yoshlarning taqdiri, davr muhitining ayol va erkak munosabatlariga ta‘siri, o‘rta yoshdagi bo‘ydoq insonlar duchor bo‘lgan inqiroz, insonlar o‘rtasidagi begonalashuv va yolg‘izlik kabi masalalar o‘z aksini topdi. Li Munyol ijodiy merosi XX asr ikkinchi yarmi koreys adabiyotining yorqin sahifalariga aylandi, nasrda, ayniqsa, hikoya janrida davr va muhit ko‘zguasi bo‘ldi.

²⁷ Kamilova S.E. XX asr oxiri – XXI asr boshlari rus va o‘zbek adabiyotida hikoya janri poetikasining rivoji. filol. fanl. dokt. diss. avtoref. – B. 14.

²⁸ 이지현 – 한-영-힌 중역에 나타난 문화소 번역 양상 분석 – 이문열의 소설 우리들의 일그러진 영웅을 중심으로 – 아시아연구 26 (1) 2023.

²⁹ 이지현 – 한-영-힌 중역에 나타난 문화소 번역 양상 분석 – 이문열의 소설 우리들의 일그러진 영웅을 중심으로 – 아시아연구 26 (1) 2023.

Ikkinchi bob “**Li Munyol ijodida an’anaviy motivlarning yangi ifodasi**” deb nomlangan bo‘lib, bobning “**Qaqnus qushi**” qissasida an’anaviy ustoz-shogird munosabatlarning badiiy ifodasi” faslida muallifning XX asrda mamlakatda yuz bergan jamiyat va davr voqealarining millat ongiga salbiy ta’sirini yoritishda, inson qalbi, ruhi, ong kechinmalarini berishda koreys badiiy olamida mavjud an’anaviy qushlar ramziga emas, balki qaqnus qushiga murojaati masalalari tahlil qilindi. “Qaqnus qushi” qissasi 1945-1950-yillar yapon istilosining so‘nggi nafasi, mamlakatning ilk mustamlaka kunlari voqeligiga bag‘ishlangan. Avlodlar o‘rtasida yuzaga kelgan moddiy farovonlik hamda azaliy qadriyatlar to‘qnashuvi, jamiyat va insoniyat ziddiyatlari, an’ana va yangilik o‘rtasidagi kurash qissada ko‘tarilgan asosiy masala hisoblanadi.

Yozuvchi mumtoz davr koreys nasrida yetakchilik qiluvchi uchta diniy falsafiy ta’limot hamda Ustoz-shogird obrazlarida istilodan keying qisqa fursatli mustaqillik davri manzaralarini chizadi. Uzoq davom etgan mustabid tuzum, kutilmagan ozodlik shogird faoliyatida yorqin ifodalanadi.

“Qaqnus qushi” qissasida insoniy qadriyatlar falsafasi asar bosh qahramoni – taniqli rassom va xattot Ko Chjuk taqdiri orqali majoziy tasvirlanadi: “...그 기상은 금시조 (금시조)가 푸른 바다를 쪼개고 용을 잡아 올리듯 하고 그 투철함은 향상 (향상)이 바닥으로부터 넷물을 가르고 나를 건너듯 하라”³⁰. “...moviy dengizga otilib, ajdohjni yulib oladigan va ko‘kka o‘qday otiladigan qaqnus qush kabi shijoatli bo‘l; xushbo‘y hid anqitib, daryodan shoshilmay kechib o‘tayotgan fildek qat‘iyatli bo‘l”.

Qissa voqealarini akademik M. Qo‘shjonovning: “kompozitsiya – asarda ijodkor diqqat markazining yaqqolligi, badiiy g‘oyaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlar hamda obrazlarning joy-joyiga qo‘yilishi va ularning tasvir me‘yori va maqsadga muvofiqligidir”³¹, fikriga asosan quyidagicha taqsimlash mumkin: 1) ustoz va shogird uchrashuvi; 2) ustoz va shogird ziddiyati; 3) shogirdning ijodda ruhni, san’atda o‘zini anglashi; 4) shogird ongida qaqnus bilan uchrashuv; 5) hayot va o‘lim konsepti.

Ko Chjukning bolalik xotiralari, erta yetim qolishi, amakisining tarbiyasiga olinishi qissaning ekspozitsiyasi bo‘lsa, uning bo‘lajak ustoz Sok Tamning uyiga kelishi, uning qaramog‘iga qoldirilishida qissaning tuguni qo‘yilgan. Ko Chjukning ustoz va iste’dod o‘rtasida chorasiz qolishi, arang nafas olib yotgan ustozining o‘jarligi g‘ashiga tegishi, haqiqiy rassom ruhi erishishni orzu qiladigan hikmatli baytlar g‘azabini qo‘zitishi ustoz va shogird o‘rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Yozuvchi ta’biri bilan aytganda: “그것들은 결국 국 마시면 마실수록 더욱 목말라진다는 바닷물 같은 것으로서...”³² “*Bularning hammasi Ko Chjukka dengiz suvidek ta’sir qilardi: qancha ko‘p ichsang, shuncha tomog‘ing quriydi...*”.

Iste’dod egasi yo‘lni tark etishida qissa g‘oyasiga singdirilgan, ustoz obrazida talqin qilingan yashash mohiyati anglashildi. “그러나 그때 고죽은 보았다. 그 불길 속에서 홀연히 솟아오르는 한 마리의 거대한 금시조를, 찬란한 금빛 날개와 그 힘찬

³⁰이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 404.쪽.

³¹ Qo‘shjonov M. Saylanma. 2tom. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983. – B. 255.

³² 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 413.쪽.

비상을”³³. “*Shu onda Ko Chjuk ko’rdi. Alanganing qoq o’rtasida bir lahzagina u ko’kka otilgan ulkan qushni payqadi, tilla tusda yarqirayotgan qanotlarni va qudratli parvozni ko’rdi*”.

Rassomlikning yuqori cho‘qqisini zabt etgan Ko Chjuk, qaqnus qushi kabi qanotlarini keng yoyish uchun ham qalbidagi alanga bilan butun rasmlariga o‘t qo‘ydi (*qaqnus qushi har bir sayrashidan keyin to‘plagan cho‘p*); ammo u yonib, kulga aylanmadi (*rasmlari yongan alangadan qolgan kul uyumi*); u dunyoni yangicha tushundi, tafakkuri voqelikni yangi nigohda qabul qildi (*cho‘g‘dan paydo bo‘lgan jajji polopon*).

Li Munyol mazkur qissasida mumtoz koreys nasrida mavjud an‘analarga qayta murojaat qilish orqali millat ruhiyatida kechayotgan o‘zgarishlarni yuksak mahorat bilan badiiy haqiqatga aylantirdi. Qissada voqealar ketma-ketligi, yozuvchining badiiy niyati, bosh qahramon borlig‘ini tasvirlashdagi mahorati, ustoz-shogird botinidagi ruhiy holat – san‘at insoniy qadriyatlar va oliy maqsadlarning eltuvchisi ekanligini mantiqiy dalillaydi. Li Munyol mazkur qissasida qaqnus qushi obrazida inson ruhi, uning ilohiylashuvi, forig‘lanishga intilishi masalalarini aks ettirdi.

Bobning ikkinchi fasli “**Adib ijodida qiyofadosh xarakterlar talqini**” deb nomlanadi. Li Munyol ijodiga mumtoz va yapon davri koreys nasrida mavjud asarlarni qayta yaratish xos. Jumladan, Li Munyolning 1988-yili yozilgan “Uch podsholik” (“삼국지”) romani eramizdan avvalgi III asrda Xitoyda bo‘lib o‘tgan urush oqibatlariga bag‘ishlangan. Roman kompozitsiya va uslubi jihatidan o‘rta asrlarda Kim Busik vatan tarixini abadiylashtirish maqsadida yaratgan “Samguk sagi” (“Uch podsholik”) rasmiy tarix asariga hamohangdir.

Li Munyolning “Omadli kun” hikoyasi harbiy boshqaruv davri biroz yumshagan, dag‘dag‘ayu zulumlar biroz ortga chekingan, jamiyatda demokratik harakatlari avj olgan, erkin fikrlarga sekin-asta minbar bo‘shatib berilayotgan davrda nashr yuzini ko‘rdi. Hikoya uslubi, kompozitsiyasi hamda obrazlar tizimiga ko‘ra, yapon anneksiyasi davrida ijod qilgan Xyon Jingonning aynan shu sarlavhali “Omadli kun” hikoyasiga hamohangdir. Har ikki adib ham dolzarb ijtimoiy muammolar girdobida bosh qahramon ruhiyatidagi g‘oyat sirli lahzalarni mohirona tasvirlay oldilar. Bu o‘rinda adabiyotshunos olim X. Do‘stmuhammadning quyidagi fikrlari o‘z tasdig‘ini topadi: “*Teatrning mo‘jaz sahnasi yoxud gazeta-jurnalning kichkina sahifasi butun dunyoni o‘zida jo etish imkoniga ega bo‘lganidek, hikoyada ham istalgan mavzuni istalgan qamrovda, istalgan murakkablikda tasvirlash mumkin. Faqat u muallifning mahoratiga bog‘liq, ya’ni u har bir hikoyaning o‘z makoni, o‘z zamoni, o‘z badiiy realligini yarata bilishi, mazkur reallikka mos tavsir uslubi, tili, ohangi, o‘ziga xos obrazlar silsilasini topishi kerak*”³⁴.

Hikoyalar o‘rtasidagi hamohanglik faqat asar kompozitsiyasi va uslubi jihatidan emas, balki unda ko‘tarilgan masalaning mohiyati, har ikki hikoyaning milliy adabiyot rivojidadagi ahamiyati, kitobxonlar tomonidan qanday baholanganligi bilan muhimdir. Xyon Jingon koreys adabiyotiga g‘arb adabiyoti ta’siri davrida, Li Munyol ijod maydoniga harbiy boshqaruv davridan keyin kirib keldi. Har ikki adib

³³이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 446쪽.

³⁴ Do‘stmuhammad X. Hikoyalarda hayot va xayol haqiqati. e-adabiyot.uz. 2014.

hikoyasida yangicha badiiy tasvir uslubi ko‘zga tashlanadi. Xyon Jingon riksha obrazini kiritgan bo‘lsa, Li Munyol olibsotar obrazini yaratadi. Har ikki obraz ham o‘z davrida yaratilgan asarlarda yangi obraz sifatida gavdalanadi. O‘zbek adabiyotshunos olimi A.Rasulov aytganlaridek: *“Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti, insonni qanday nuqtai nazardan tasvirlashi bilan bir-biridan farq qiladi”*³⁵.

Li Munyol “Omadli kun” hikoyasida hayotda ham ma‘nan, ham moddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirgan, vatan oldidagi burchini bajarish paytida qilgan yaxshiliklari evaziga orttirgan do‘sti Yun yordamida turmushi o‘nglana boshlagan, ammo, xudbinligi tufayli eshik qoqqan omadini yo‘qotgan yigitning ma‘naviy-ruhiy inqirozi samimiy tasvirlangan. Hikoyaning so‘nggi satrlarida alam-o‘kinchli ko‘zyoshlar seziladi. Qahramonning *omadi kelgan kunda* inson umri haqidagi qo‘shiqning so‘nggi nidosida rejalar barbod bo‘ldi.

Li Munyol hamda Xyon Jingon hikoya avvalida bosh qahramonning oddiy, ammo, bir ish kunida kelgan omadi haqida tanishtiradilar. Xyon Jingon hikoyasida ijtimoiy-siyosiy to‘lqinlar, xususan, mustamlaka davrida hayot kechirayotgan oddiy rikshaning murakkab va ayanchli taqdiri, fojiali qismati badiiy tasvirlangan: *“새침하게 흐린 품이 눈이 올 듯하더니 눈은 아니 오고 얼다가 만 비가 추적추적 내리는 날이었다”*³⁶ *“Xuddi qor yog‘ayotgandek havoning qovog‘i osildi, biroq qor emas, balki sovuq yomg‘ir yog‘a boshladi”*.

Li Munyol esa o‘z hikoyasini bosh qahramonni chiroyli kiyintirishdan boshlaydi. Chiroyli libos kunning omadli kelishini sharhlashga yordam beradi: *“새로 맞춰 입은 양복 때문에 그날은 아침부터가 유별났다. 윤 사장 점포에 앉아 있는데 무슨 합섬인가 하는 회사의 뒷감이라며 들고 다니는 게 하도 값싸 샀던 양복감으로 재단사인 종구 녀석에게 부탁해 삼만 원에 양복을 뽑아 놓고 보니 제법 때깔이 괜찮았다”*³⁷ *“Bugungi kun har doimgidan farqli o‘laroq, buyurtma asosida tikilgan yangi kostyum sharofati bilan yaxshi boshlandi. Tasodifan Yunning do‘konida o‘tirib, u qandaydir sintetika ishlab chiqaruvchi fabrikadan qora bozor uchun tashuvchi olib chiqqan matohdan sotib oldi. Tikuvchi Chongudan kostyum tikib berishni iltimos qildi va ish haqiga o‘ttiz ming von berdi. Kostyum juda ham chiroyli tikildi: bichimi, rangi – ko‘ngildagidek”*.

Har ikki muallif hikoyasida ilk jumla katta ahamiyat kasb etadi. Chunki muallifning badiiy niyati, asarning mazmun-mohiyati, sarlavhasi, voqealar zanjiri hikoya poetikasiga tegishli ilk jumlada namoyon bo‘ladi. Xyon Jingon o‘z hikoyasida ilk jumlaning tabiat tasvirida bersa, Li Munyol ilk jumlada bosh qahramonning yangi libosida uning kayfiyatini ko‘rsatishdan boshlaydi. Li Munyol yangi libos detalida bosh qahramonni taftish qiladi hamda uning xarakterini yanada chuqurroq ochib berishda unumli foydalanadi. Har ikki muallif hikoyasida ilk jumla asarning tayanch nuqtasidan hisoblangan tugundan boshlanadi.

Mazkur davr hayot manzarasini chizishda adib ishsizlik sabab shaharga kelayotgan yosh qizlarning axloqsizlik ko‘chasiga kirishiga faqat moddiy

³⁵ Rasulov A. Badiiylik – bu zavol yangilik. – Toshkent. 2007. –B. 27.

³⁶ 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 43.쪽.

³⁷ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 49.쪽.

yetishmovchilik emas, balki o‘z nafsini yo‘lida, yoki hikoya qahramoni tasavvuridagi “omad” ketidan quvganlar ham sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Hikoya avvalida qizning sof, pok, iffatli qiyofasi kitobxonni quvontirsa, syujet rivoji davomida undagi o‘zgarishlar sabab nafrat tuyg‘usi ortadi. Xyon Jingon hikoyasidagi “...hozir qiz bolani fohishadan ajratib bo‘lmaydi, xuddi zarg‘aldoq qushdek sayradi” kabi o‘xshatishlar Li Munyol hikoyasida “...avvalgi sof qiz qiyofasini yo‘qotgan, ovozi ham ingichkalashib ketgan” tarzida beriladi.

Li Munyol hikoyasini o‘qish jarayonida kitobxon uning yakunini intiqlik bilan kutadi, hikoya fojiviy tarzda – bosh qahramonning o‘limi bilan tugatiladi. Adib o‘zidan oldin yashab o‘tgan yozuvchi Xyon Jingonning “Omadli kun” hikoyasi motivlaridan foydalangan bo‘lsa-da, hikoyada yozuvchining o‘ziga xos uslubi, mahorati, jumladan, *olibsoatar* obrazi o‘zining originalligi bilan ajralib turadi.

Xyon Jingon o‘z hikoyasida XX asrning 30-yillari, Li Munyol esa XX asrning 90-yillaridagi xalqning ahvolini *riksha* va *olibsoatar* obrazlariga yuklaydi. Har ikki muallif kamchiliklardan xoli bo‘lmagan jamiyatdagi muhitni ko‘rsatishda insonning tasavvuridagi omad, unga intilib yashashida o‘zining qarashlarini ifoda etadilar. Har ikki obraz jamiyatdagi jarayonlarni ochib berishda muhimlik kasb qiladi: Xyon Jingon qahramoni ilmsiz, ma‘rifatsiz inson, Li Munyol qahramoni esa savodli, askarlik xizmatini ham o‘tagan, ishbilarmon. Har ikki hikoya qahramoni zamon (Xyon Jingon asari qahramoni XX asrning birinchi yarmi, yapon istilosi davri insoni, Li Munyol hikoyasi qahramoni XX asrning 80-yillari insoni) va makon (Koreya)da ro‘y berayotgan voqealar ishtirokchisidir.

Uchinchi bob “**Li Munyol hikoyalarining badiiy xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi “**Muallif hikoyalarida badiiy zamon va makon tabiati**” faslida muallif hikoyalarida XX asrning koreys xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan uch buyuk ijtimoiy-siyosiy voqealar – qisqa muddatli ozodlik, fuqarolar urushi, mafkuraviy bo‘linish masalalari makon va zamon nuqtai nazaridan tahlilga tortildi. Yozuvchi o‘zining badiiy niyatini tasvirning tashqi turlari – makon, zamon, peyzaj, interyer, portret, ichki tasvir turlari – qahramonning ruhiy holati, ma‘naviy olami hamda ramzlar, psixologik tush, an‘naviy timsol, yangi detallar vositasida ifodaladi. “Olma va besh askar” hikoyasi ham shunday timsollar orqali yaratilgan bo‘lib, u buddaviylik ruhi bilan sug‘orilgan: “너는 그저 불자니라. 하늘과 땅이 네 어버이니라”³⁸. “*Sen buddaviy rohidsan. Ota-onang – Osmon va Zamin*”.

Ota-onasining kimligini ham bilmay, dunyoga kelgan uchinchi kundan boshlab buddaviylik ibodatxonasida ulg‘aygan bosh qahramon askarlik xizmatidan so‘ng oddiy insonlar kabi kun kechirish istagida o‘zini voyaga yetkazgan bosh ruhoniyan ketishga ruxsat so‘radi: “무슨 인연에 끌리어 그러는지 알 수 없다만 말리지는 않겠다. 그러나 한 번 너를 버린 그 땅이 다시 따뜻이 맞아줄 것 같지 않구나. 언제든 다시 돌아오너라. 산문은 항상 열려 있다”³⁹. “*Bilmadim, qaysi shayton seni yo‘ldan urdi, ammo yo‘lingga to‘siq bo‘lmayman. Zotan, bir vaqtlar seni inkor etgan Zamin (ona ma‘nosida ta‘kid bizniki – K.N.), endi seni quchoq ochib kutib olmaydi. Xohlagan vaqtingda ortga qaytishing mumkin. Ibodatxona eshiklari har doim ochiq*”.

³⁸이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 18 쪽.

³⁹ Solijonov Y. Adabiyot xiyoboni. Maqolalar, suhbatlar. – Farg‘ona. 2020. – B. 32.

Askarlik burchini o'tash davrida o'z ota-onasini axtarib topishga qaror qilgan bosh qahramon obrazi orqali urush tufayli o'z yaqinlari, ota-onasini yo'qotgan insonlarning hayotiga nazar tashlanadi. Bosh qahramon obrazida Li Munyol o'zining bolalik davrini tasvirlaydi, bosh qahramon dunyoqarashi orqali o'zining e'tiqodi va insonlar olami o'rtasida parallel o'tkazadi. Muallif bosh qahramon izlagan makon tasvirida o'quvchini qahramon zuhurida kechayotgan *uchrashuv*ga tayyorlaydi. Zero, "...ko'pincha adabiyotda *uchrashuv xronotopi*⁴⁰ kompozitsiya, ba'zida esa syujet yechimi vazifasini o'taydi. Ayniqsa, *uchrashuv motivi* – turli xil yo'l *uchrashuvlari* – yo'l *xronotipi* ("katta yo'l") bilan bog'liq muhim bog'lanishga ega. Yo'l *xronotopida* makon-zamon uyg'unligi mukammal tarzda aniq va yorqin ochiladi"⁴¹. Hikoya bosh qahramoni Pek Manso yigirma yetti yildan so'ng otasi bilan qishloqqa borar yo'l (makon)da uchrashsa, onasi bilan uning xonadoni (makon)da uchrashadi. Shu o'rinda muallif hikoyada "amaldor" xonadoniga qarashli "mevali bog'" ta'rifini keltirib o'tadi. Xonadonning "mevali bog'"i (makon)ga tashrif buyurgan askarlardan bittasi bilan qiz (bosh qahramon onasi)ning uchrashuvi hikoya syujetidagi voqealar zanjiriga asos bo'ladi. Hikoya qahramoni Manso va u uchratgan besh askar, sirli akas butalari, olma hodisasini ana shu zanjirsiz anglash mushkul.

Li Munyol hikoyalarida voqealarning sodir bo'lish joyi sifatida olis qishloqlar tanlanadi. Jumladan, "Xotira uchquni" hikoyasida voqealarni sodir bo'lishiga ko'ra quyidagicha taqsimlash mumkin 1. Bosh qahramon olis qishloqda – urush vaqtida yashagan yillari: "할아버지는 서른아홉에 병석에서 피를 토하며 숨을 거두신 데 비해, 아버지는 스물아홉에 전쟁으로 생목숨을 빼앗겼기 때문이다. 거기다가 십 년 가까이 병석에서 시름시름하던 남편이 기어이 눈을 감은 것이 그때로부터 삼십여 년 전이라면, 홀몸으로 기른 유복자가 다시 돌 지난 손자와 스물일곱의 며느리를 남겨 놓고 충알을 맞아 별집처럼 된 시체로 돌아온 것은 잘돼야 그때로부터 두세 해 전의 일이었다"⁴². "*Mening buvam o'ttiz to'qqiz yoshida og'ir xastalikdan vafot etgan, otam esa yigirma to'qqiz yoshida urushda halok bo'ldi...kelin (onam) yigirma yetti yoshda bo'lib, nevara (bosh qahramon) endigina o'zining bir yoshini qarshi olgan edi*". Bolaning xotirasida buva va otasi haqida faqat yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilgan, o'zi to'qigan voqealar asosida ular qilgan ishlarni bo'rttirib gapirib bergan buvi obrazidir. 2. Bosh qahramon ulg'ayib, markazga – poytaxt shaharga yashashga ketgan davri: "내가 서러움과 미움의 그 마을을 떠난 것은 초등학교를 졸업하던 해 봄이었다. 형편 없는 내 졸업 성적이 사촌 형에게 자연스러운 구실을 주어 중학교도 진학하지 못한 채 어린 나무꾼이 된 나는 어느 날 지계를 벗어 동구 밖 당나무에 걸어두고 아지랑이 피는 신작로를 따라나섰다. 아무런 준비도 계획도 없었지만 어디를 가도 그 마을만 못하지는 않으리란 생각에 마음은 오히려 가벼웠다"⁴³. "*Bahorda, maktabni*

⁴⁰ Xronotop – yunoncha chronos (zamon, vaqt) va topos (makon, joy) so'zlarini biriktirish asosida maydonga kelgan termin. Mixail Baxtin XX asrning 30-yillarida ushbu tushunchani bevosita adabiyotshunoslikka olib kirgan. Xronotop badiiy asardagi janr, kompozitsiya, syujet, matn strukturasi, obrazlarni uyg'un (yagona makon-zamon negizida) aks ettiruvchi universal poetik hodisa hisoblanadi. Shuningdek, zamon makonning kenglik, balandlik va chuqurlikdan tashqari to'rtinchi, ya'ni umumlashtiruvchi o'lchovidir. Bu haqida batafsil qarang: Mixail Baxtin. Romanda zamon va xronotop shakllari. Rus tilidan Uzoq Jo'raqulov tarjimasini. – Toshkent. «Akademnashr». 2015.

⁴¹ Бактин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 248-249.

⁴² 이문열. 타오르는 추억 – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 19 쪽.

⁴³ 이문열. 타오르는 추억 – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 43 쪽.

tugatib, men zerikarli hamda nafratga to'la qishloqni tark etdim...Hech vaqosiz va hech qanday rejasiz men ona qishlog'imdanda ko'ra, hamma joyda menga yaxshi bo'ladi, degan fikrda edim". 3. Bosh qahramon o'tmish xotiralari ta'sirida qishlog'iga – akasining oldiga qaytgan davr. O'tgan voqealarga aniqlik kiritish uchun akasini so'roqqa tutgan bosh qahramon o'z savollariga javob olishga ulgurmaydi: "그리하여 나도 당신들처럼 자신이 본 것과 아는 것에 믿음과 사랑을 가지고 싶었다. 그 믿음과 사랑을 바탕으로 세계와 인생에 대한 믿음과 사랑을 키우고 싶었으며, 내 삶과 꿈도 새로이 가꾸어보고 싶었다. 그러나 당신들은 너무도 일찍 왔고, 찾아야 할 많은 것은 여전히 타오르는 추억으로만 남았다. 처절하게 또는 불안하게, 헛되이 타오르는"⁴⁴. "*Men ham sizga o'xshab o'zim ko'rgan va bilgan narsalarga nisbatan ishonch va mehrni tuymoqchi edim. Shu asosida men olam va odamlarga nisbatan o'zimdanda ishonch va mehrni tarbiyalamoqchi edim, hayot va maqsadlarimni bir tartibga keltirmoqchi edim. Ammo siz juda erta tashrif buyurdingiz, men ortga qaytarmoqchi bo'lganlarim xotiralar uchquniga aylandi. G'amginmi yoki xavotirli, foydasiz uchqunlar*".

Hikoya syujeti o'tmish xotiralari asosiga qurilgan, bosh qahramon otasining partizan bo'lganligi, ya'ni buvisi tasvirlagan turnaga aylanmaganligini tan olishni istamadi. Bolalik xotiralarida buvisi muhrlagan "qahramon otasi" aslida vataniga sotqinlik qilganligi uchun ilma-teshik qilib otib tashlangani haqidagi haqiqat uning qotillikka qo'l urishiga sabab bo'ldi. Otasi halok bo'lgan qishloq (makon)ni tark etgan bosh qahramon oradan yigirma yil o'tib, yana shu tug'ilgan makoniga tashrif buyurdi, qo'shnilar bergan xabarga ko'ra, qishloq posponlari tomonidan qo'lga olindi.

Li Munyol qishloq, uy, joy kabi makon tasvirlari bilan birga fuqarolar urushi davri (zamon) hodisalarini ham ishonarli tarzda, haqqoniy tasvirleydi: "자네 들었는지 모르지만, 참봉댁 어른께는 일정 때 동경 유학까지 다녀온 만아 들이 하나 있었네. 일찍부터 좌익에 물들어 해방 뒤에는 건준에 나가더니 끝내는 박헌영이 따라 월북했는데, 그게 뒤늦게 문제가 되었어. 국군 병정 다섯이 몰살당한 게 참봉댁 과수원 앞이다 보니 엉뚱한 의심을 받게 된 거네"⁴⁵. "*Bilmadim, eshitganmisan yoki yo'q, oilaning to'ng'ich farzandi yapon hukmronligi davrida Tokioda tahsil olgan. Yoshligidan boshlab u so'llar tarafida bo'lgan, ozodlikka erishgach, u davlatni qayta qurish komitetiga a'zo bo'ldi. Keyin Pak Xonyon bilan birga Shimolga ketdi, bu keyinchalik muammoga aylandi. Besh askarning "amaldor" bog'i oldida o'limga mahkum etilishi barchada shubha tug'ilishiga sabab bo'ldi*".

Bu yerda yozuvchi "yapon hukmronligi" (yapon anneksiyasi davri, 1910-1945-yillar), "so'llar tarafida" (asr boshida mamlakatda yuzaga kelgan arxaistlar va ma'rifatparvarlik yillari), "ozodlikka erishgach" (1945-1950-yillar), "Shimolga ketdi" (1950-1953-yillar – fuqarolar urushi davri) kabi iboralarda turli zamonlarni nazarda tutadi. Barcha zamonlar esa birlashib, bir butun zanjirlikda XX asrning ilk yillaridan boshlab fuqarolar urushi davrini qamrab olish bilan birga, hikoya syujetiga kiritilgan voqealarni bir butunlikda tasavvur qilish imkonini beradi. Ko'rinadiki, muallif vatani tarixida ro'y bergan barcha voqelikni badiiy gavdalantirishga

⁴⁴ 이문열. 타오르는 추억 – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 63.쪽.

⁴⁵ 이문열. 금시조. – 서울: 알에이치코리아, 2021. – 42.쪽.

muvaffaq bo'lgan. Qariyaning shu qisqa hikoyasida davrning shiddatli voqealari tilga olinadi, voqealar kechgan zamon esa mahorat bilan tasvirlanadi.

Rus adabiyotshunos olimi M. Baxtinning ta'kidlashicha, har qanday asardagi badiiy makon va zamon konsepsiyasida dunyoning ramziy qiyofasi aks etadi. Zamon (vaqt) badiiy harakatni yuzaga chiqaruvchi va ta'minlovchi asosiy vositadir. Har makon va zamondagi harakatlanuvchi inson va narsa predmet majoziy-ramziy xarakterga ega bo'ladi...zaminda vaqt (zamon) har xil turlarga ajratilgan, adabiy toza, his qiluvchi tushunchadir. Bu bo'linish (erta) va (kech) hamda zamon (vaqt) tushunchasi orqali dunyoni anglashga harakat qilinadi⁴⁶. "Olma va besh askar" hikoyasida qiz (ona) va qariya xotiralarida mazkur davrda (zamon)da sodir bo'lgan voqeani o'quvchiga aniq ko'rsatish maqsadida muallif besh askar va bog' haqida takror-takror hikoya qiladi. "Xotiralar uchquni" hikoyasida esa qishloq etagidagi o'rmon va u yerga kirib ketgan qizillar bolaning xotirasidan bot-bot o'tkaziladi.

Muallifga qadar ham qator adiblar fuqarolar urushi mavzuida qalam tebratganlar, har bir asardagi qahramonlar ruhiyati turlicha namoyon qilingan. Urush mavzuidagi asar qahramonlari ruhiyatidagi o'zgarishlar ba'zi asarlarda izchil tasvirlansa, ba'zi asarlarda murakkab holatda beriladi. Li Munyol hikoyalari qahramonlarini harakatlantiruvchi va hikoyadagi voqealar tizimini rivojlantiruvchi asosiy nuqta – bu mudhish, ayovsiz fuqarolar urushidir.

Bobning "**Muallif hikoyalarida yangi obrazlar badiiyati**" faslida Li Munyolning fuqarolar urushidan keyingi xaos (bo'shliq), harbiy boshqaruv tuzumining jamiyat hayotida, xalq ongida tub burilishlar uchun zamin yaratgan asrning 80-yillari harbiy boshqaruv davri fojialari aks ettirilgan hikoyalari tahlilga tortilgan.

Muallif yaratgan hikoyalarida o'zi yashagan davr muhitini berishda, badiiy-estetik tafakkurini namoyon etishda yangi badiiy obrazlarga murojaat qiladi, bular – mamlakat armiyasi safiga olinayotgan yoshlar, askarlar, zobitlar, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, ibodatxona tarbiyalanuvchilari, o'tmishini berkitish uchun rohiblik rutbasini kiygan insonlar. Bu obrazlar o'zida mazkur davrdagi xalq qiyofasini aks ettiradi. Yozuvchi bu obrazlarning tabiatini ochib berishda yopiq makonga murojaat qiladi.

Yozuvchi "Ustun va cho'chqa" hikoyasida shaxs erkinligi va huquqlarning buzilishini yopiq⁴⁷ makon – harbiylar vagonida tasvirlaydi. Jamoaviy kuchga qarshi zaif inson harakatining chorasizligi, zo'ravonlik mamlakat ijtimoiy hayotining ko'rsatkichi sifatida ko'rsatiladi. Vagon derazasi ortida esa hayot bir tekis va ravon kechayotgandek taassurot uyg'otadi. Harakatlanayotgan poyezd tezligi – mamlakatdagi zo'ravonlikning keskin tus olganiga ishora qiladi. Shu bilan birga poyezd doimiy harakatda bo'lib, har bir bekat o'z qurbonlarini qarshi oladi. Ma'lumki, yopiq makonda keskin harakat qilish, qarshilik ko'rsatish imkoni

⁴⁶ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Rus tilidan Uzoq Jo'raqulov tarjimasida. – Toshkent. "Akademnashr". 2015.

⁴⁷ Peyzaj – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri. Bu haqida batafsil qarang: D. Qur'onov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent: «Akademnashr». 2010. – B. 220.

chegaralangan. Yozuvchi yopiq makon va deraza ortidagi hayotning bir-birini inkor etishini, mo‘rtligini aks ettirish orqali davr muhitiga o‘z bahosini beradi.

“Ustun va cho‘chqa” hikoyasi bosh qahramoni armiya hayotining jonli guvohi. Hikoyada muddatli xizmatdan so‘ng uyiga qaytayotgan askarning poyezdda o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar fonida armiya safidagi xizmati haqida o‘qtin-o‘qtin esga olinadi. Bir kunlik voqelikda mamlakatning mazkur davr armiyasidagi vaziyat, armiyada xizmat qilgan yoshlarning ma‘naviy-axloqi, askarlik xizmatidan keyingi holat sarhisob qilinadi. Bosh qahramon hayotining birgina epizodida uning asl qiyofasi anglashiladi. Poyezdning bir vagonida “ma‘naviy hordiq” uchun jamg‘arma uyga qaytayotgan askarlar uchun nafaqat ortiqcha xarajat, balki ramziy ma‘noda jamiyatdagi g‘alayonlar, ruhiy zo‘riqlashlarning bir ko‘rinishidir.

Adib hikoya qahramonlari Li va Xonning tanishuv tafsilotini to‘liq keltirib o‘tirmaydi. Bosh qahramon Li va Xon o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi epizodda kitobxon darhol hikoya markazida turgan barcha voqea-hodisalar aynan Xon obrazi orqali berilishini anglab yetadi. Hikoya bosh qahramoni Lining xulq-atvorini ochib berishda Xon obrazining kiritilishi juda katta san‘atkorlik darajasida bajarilgan. Askarlik xizmatidan bo‘shab, uyiga qaytayotgan Li: “그는 원래 되도록 군용열차는 피하려고 했었다”⁴⁸ “*U harbiy poyezdlardan yiroq bo‘lishga harakat qildi*” ammo, “하물며 이제 막 그 원한에 찬 생활을 끝맺고 귀향하는 마당에 또 그놈의. 군용열 차라니 – 적어도 전날 밤 그의 생각은 그랬다”⁴⁹ “*O‘sha kuni u ketishdan oldin chidab bo‘lmas it turmushi poyoniga yetgani va nihoyat uyiga ketayotgani haqida o‘yladi*”. Shu sababli u o‘zi singari askarlik xizmatidan so‘ng uyiga ketayotganlar bilan birga haqiqiy bayram uyushtirdi. Kuchli xursandchilik ortida bo‘shab qolgan hamyonda manzilga yetadigan pul qolmadi. Shu tariqa yozuvchi bosh qahramonning Xon bilan uchrashuviga zamin hozirlaydi.

Ma‘lumki, zo‘ravonlik va jinoyat ishlari, qotillik, o‘zaro munosabatlarga oydinlik kiritib olish ishlari odatda yopiq joylarda sodir bo‘ladi. Muallif ham jamiyatda yoshlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan nopok ishlarni ko‘rsatish uchun *makon* sifatida poyezd vagonini tanlaydi. Yopiq makon – poyezd shunchaki transport vositasi emas, balki mamlakatda sodir bo‘layotgan voqealar, tarixga aylanayotgan haqiqatdir. Poyezd detalida muallif mazkur davrning ijtimoiy holatini chizadi.

Aynan harbiylar chiqqan poyezd – harbiy boshqaruv davri ko‘zgusi. Achinarli holat, bu yerda ziyolilar ham bor. Ammo ular jamoaviy kuchga qarshi tura olishmaydi. Bu holat Lining ichki monologida beriladi: “아, 나의 팔은 너무 가늘고 희구나, 내 목소리는 너무 약하고, 내 심장은 너무 여리구나, 저들의 폭력을 감당하기에는. 학대받고 복종하는 데 익숙한 내 동료들을 분기시키기에는”⁵⁰. “*Mening qo‘llarim kalta, mening ovozim sassiz, qalbim zaif. Bunday shavqatsizlikka qarshi turishga kuchim yetmaydi, aybdorlikka o‘rganib qolgan o‘rtoqlarimni ortimdan ergashtira olmayman*”.

Askarning xayolidan o‘tgan fikri – temiryo‘l xavfsizligini ta‘minlovchi pospon yoki harbiy patrulning yo‘qligi Xonning tilidan yangrashida: “뭘, 이 마차에는

⁴⁸ 이문열, 팔론과돼지, 알에이차코리아, 2021. – 320 쪽.

⁴⁹ 이문열, 팔론과돼지, 알에이차코리아, 2021. – 320. 쪽.

⁵⁰ 이문열, 팔론과돼지, 알에이차코리아, 2021. – 329. 쪽.

경비원이 없나요?”⁵¹. “*Nima, bu vagonda qo‘riqchi yo‘qmi?*”, *qo‘riqchini* eslash orqali, mamlakatdagi tartibsizliklar uchun mas’ulning o‘z vazifasini bajarmayapganligini ta’kidlanadi.

Hikoyaga kiritilgan obrazlarni shartli ravishda uch toifaga ajratish mumkin: birinchisi, “qora shapkalilar” tarzida berilgan zo‘ravonlar bo‘lib, aslida ular haqiqiy jinoyatchi emas, balki harbiy boshqaruv tizimining ko‘zgudagi xira ko‘rinishdagi aksidir. “Qora shapkalilar” kichik bir guruh, to‘da bo‘lib, mana shunday mayda zarralar harbiy boshqaruv tizimiga xizmatda. Ikkinchi, Li kabi befarq, loqayd insonlar guruhi bo‘lib, ular uyushgan jinoyatchilardan ham xavflidir. Uchinchi, ozg‘in askar obrazidagi insonlar amalda ishlamaydigan qonun va tartibsizlik qurbonlaridir.

Li Munyol o‘z davri kishisining turli obrazlarini yaratishda, ularning ichki olamini ochib berishda mamlakatda sodir bo‘lgan real voqealar bilan birga xotiralardan o‘rinli foydalanadi. Harbiy tuzum hukmronligi yillarida mehribonlik uyida tarbiyalangan o‘qituvchi Kim va oilali begona erkakning tasodifan poyezdning bir kupesida hamroh bo‘lishi voqeasi “Nazaretni eslaysizmi?” hikoyasida o‘z aksini topadi. Kupedagi uchrashuv hikoya tuguni, o‘qituvchi Kimning begona erkakni savollarga ko‘mib tashlashi, o‘tmish xotiralarini yodga solishi asarning avj nuqtasidir. Tashqariga chiqib kelish bahonasida so‘nggi chora – o‘zini poyezd g‘ildiraklari ostiga tashlab, o‘lim topgan erkakning xatti-harakati hikoyaning yechimi hisoblanadi.

“Ustun va cho‘chqa” hikoyasida yopiq makon – vagon (철도 객차), “Nazaretni eslaysizmi?” hikoyasida kupe (기차칸) tarzida beriladi. Vagon, kupe kabi yopiq makonga muallif o‘zining davr zo‘ravonliklari haqidagi fikrlarini to‘laligicha singdira olgan. Muallif dastlab Kim, oilasi bilan birga begona erkak, barcha voqelarga guvoh bo‘lgan bosh qahramonni bir kupega joylashtiradi. Adib sodir bo‘lishi kutilayotgan voqealardan oldin barchani o‘tmishga qaytarish, xotiralarni yodga solish maqsadida kupega yig‘ilgan erkaklarning may ichish epizodini kiritadi. May ichish holati sodir bo‘ladigan fojia – erkakning o‘z joniga qasd qilishini ta’minlagan.

Hikoyada o‘qituvchi Kim va begona erkakning bir qarashda sokin, ammo kuchli to‘fonga uchragan hayot xotiralari yodga olinadi. Adib xotiralarga murojaat qilar ekan, kaos (bo‘shliq) davridan keyingi harbiy boshqaruv ayni avjiga chiqqan, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari soni ortgan, davlat boshqaruviga qarshi kayfiyatning kuchaygan, insonlar o‘rtasida e’tiqodning susaygan, ma’naviy sayozlik masalalarining tub mohiyatiga e’tibor qaratadi.

Ziddiyatli davr ishtirokchisi sifatida adib “Yosh yigit portreti” hikoyasida yoshlarning zohidlik yo‘liga kirish sabablarini ochib beradi, muallif obrazida sarson insonning iztiroblarini yoritadi. Muallif obrazi boshqa obrazlardan farqli ravishda bunday *tuzoqqa* (ta’kid bizniki – K. N.) tushmadi. Bu haqida hikoyada shunday satrlar uchraydi: “관적이고 절대적인 가치가 우리를 인도할 수 없다면 우리의 구원은 우리 자신의 손으로 넘어온 것이며, 우리의 삶도 외재적인 대상에 바쳐진 것이 아니라 스스로

⁵¹이문열, *팔론과돼지*, 알에이치코리아, 2021. – 329.쪽.

시인 하고 채워가야 할 어떤 것이었다”⁵². “*Agar obyektiv, mutlaq qadriyatlar bizni boshqara olmasa, bizning hayotimiz o‘zimizga bog‘liq. ...hayotimiz tashqi ta’sirlar uchun emas, o‘zimizga bog‘liq ravishda berilgan...*”. Muallif ruhiy zarbalar, og‘ir damlar, ocharchilikka, yolg‘izlikka bardosh berdi, atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo‘ldi, umidsizlik, tushkunlikka bardosh berib yashadi

Mehribonlik uyi ham adib tanlagan yopiq makonlardan biri hisoblanib, mustabid tuzum hukmronligi davrida o‘zlarining qora ishlarini berkitishga harakat qilayotganlar yashiringan hududdek taassurot uyg‘otadi. Hikoya avvalida begona erkak sifatida berilgan qahramon siyosiy zo‘ravonlik davrining mavhum kishisi bo‘lsa, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining xotirasida U, hayoti, o‘zining asl qiyofasi bilan tanish insonlarga duch kelib, joniga qasd qilganida esa haqiqiy ism-sharifi Yun Suvon ekanligi ma‘lum bo‘lgan qahramon xatti-harakatida mamlakatdagi harbiylar boshqaruvi davrining fojiasi aks ettiriladi.

“Mavhumlik oroli” hikoyasida endigina oila qurgan bosh qahramon erkakning armiya safiga olib ketilishi hikoyada ziddiyatni kuchaytiradi. Hikoya syujeti o‘quvchining e‘tiborini o‘ziga tortadi, chunki armiya safidagi bosh qahramon Vyetnamga – urushga jo‘natiladi. Hikoyaning avj nuqtasi bo‘lgan urushga ketish lavhasi kitobxon kutgandek fojiali yakunlanmaydi. Aksincha, urushga ketishdan oldin oilasi bilan birga bo‘lishi uchun berilgan vaqtini do‘stlari davrasida, es-hushini yo‘qotish darajasida sharob ichish bilan o‘tkazishi – oldinda uni qanday qismat kutayotganiga ishora qiladi. Er urushdan qaytib keldi, ammo u urushda yurgan yillari ayoli o‘zi istamagan holda gunohga qo‘l urdi. “그런데 한 가지 알 수 없는 것은 그런 허탈한 가운데서도 식을 줄 모르고 달아오르는 내 몸이었다. 아니, 그 이상, 남편의 품에 안길 것을 상상하며 보내온 지난 일주일보다 그가 이제는 올 수 없다는 것을 뚜렷이 알게 되면서부터 더 뜨겁게 달아오르는 것 같았다”⁵³. “*Men tushunarsiz holat og‘ushida edim: juda ham qattiq siqilgan bo‘lsam-da, tanamni tushunib bo‘lmas harorat chulg‘ab olgandi. Erimning qaynoq quchog‘ida bo‘lish imkoniyati mavjud so‘nggi hafta o‘tib ketganini anglaganimda, u endi qaytib kelmasligini tushunganimda, tanamdagi harorat yanada kuchaydi*”.

Ayolning gunohini tan olish iztiroblari tabiiy gavdalantirilgan. Avval pushaymonlik hissi oradan yillar o‘tib ayolning qalbida “mavhum orol siri” kabi taftish qilinmadi. Li Muniyol erining har safar shahar va qishloq odamlari o‘rtasidagi oqibat masalalariga munosabat bildirishi, shahar odamlari, ayniqsa, yoshlarning “mavhumlik” qa’rida axloqsizlik ko‘chasiga kirib ketayotgani haqidagi fikrlarida ayolning yodiga bo‘lib o‘tgan voqeani bot-bot eslatadi.

Tahlilga tortilgan hikoyalarda ijodkor dunyoqarashidagi diniy-falsafiy ta’limot uning asarlarida yetakchi tamoyilga aylanganligi kuzatiladi. Bu nuqtai nazardan adib hikoyalarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin: *birinchidan*, asar tagmatniga falsafiy qarashlarni ramzlar vositasida joylashtirish. Jumladan, faylasuf Pirron obrazida jamiyatga foydasiz insonlar haqida so‘z yuritiladi. *Ikkinchidan*, mamlakatdagi mafkura, siyosiy jarayonlarning insonlar hayotiga aks ta’siri natijasida yashash uchun intilayotgan odamlarning o‘zlariga *diniy pano*h izlashlari.

⁵² 이문열, *젊은 날의 초상*, 알에이차코리아, 2020. – 350.쪽.

⁵³ 이문열, *익명의섬*, 중단편전집, 2021. – 335.쪽.

Bu mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, tarbiyachilari (bu yerda bosh ruhoniylar nazarda tutilmoqda) faoliyatida ko'zga tashlanadi. *Uchinchi*, fuqarolar urushi haqidagi muallif tafakkurining buddaviylik qarashlari bilan uyg'unligi. Bunda tush motiviga nisbatan gallyutsinatsiya ko'proq muhim rol o'ynaydi. Yozuvchi qaysidir holatda jamiyatda yuzaga kelgan loqaydlik, e'tiborsizlik masalalarini tanqid qilsa, boshqa holatda insonni, uning o'zini anglashi, ruhiy holatini tadqiq qiladi.

Zamonaviy koreys nasrida o'z uslubiga ega ijodkor Li Munyol qalamiga mansub asarlarda davr voqeligi ramziy aks ettirilgan. Adib kitobxonga davr muhitini turli rakurslarda, yangi obrazlarda berishga muvaffaq bo'ldi.

XULOSA

Li Munyol qissa va hikoyalari badiiyati, tasvir vositalarining yangiligi, obrazlarni tadqiq qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy koreys nasri taraqqiyotining birinchi bosqichi 1945-1950-yillarga to'g'ri keladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi jiddiy evrilishlar adabiyotga g'arb, rus va yapon adabiyoti va madaniyati ta'siri kuchayganligini bilan izohlanadi, milliy adabiyot oldida turgan munozarali masalalar dolzarblik kasb etadi.

2. 1960-1970-yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqichda ikki xil mafkura ostida bo'lingan adabiyot kommunistik g'oyalarga qarshi turdi; urush voqealari tarix sahifalariga muhrlandi; "19-aprel avlodlari" vakillarining ijodi faollashdi; avlodlar fojiasi fonida xalq taqdiri yoritildi; nasrda ma'naviy tanazzul, ishonchsizlik masalalari yetakchilik qildi.

3. Uchinchi bosqich, ya'ni, 1980-yildan bugungi kunga qadar bo'lgan davrda milliy adabiyotning nazariy masalalari kunning dolzarb muammosiga aylandi. Yozuvchilar ijodida roman janri yetakchilik qildi. Mazkur janrda insonni ilohiylashtirish, borliqni falsafiy mushohada qilish masalalari ilgari surildi, bunga Li Munyolning "Bashariyat o'g'li" romani misol bo'la oladi. Hikoyalar shaklan va hajman o'zgarishlarga uchradi.

4. Li Munyol qissa va hikoyalarida Koreya tarixida o'chmas iz qoldirgan yapon anneksiyasining so'nggi nafasidan tortib, fuqarolar urushi, kaos (bo'shliq), sanoatlashtirish, harbiy boshqaruv davri kabi ijtimoiy-siyosiy muhitda yuz bergan voqealar qamrab olingan. Turli tashqi tazyiq hamda ichki to'qnashuvlar girdobidagi inson taqdiri, mustabid zulmi, zo'rvonlik hamda tahdid muammosiga duch kelgan xalq ahvoli, mafkuraviy bo'linish fojiasi, uning mudhish oqibatlari, madaniy qatlamda paydo bo'lgan turli fikrlilik adib hikoyalarida badiiy ifodasini topdi.

5. Sharq va g'arb adabiyotidan ta'sirlangan muallif adabiy mushtaraklik masalalarini "Qaqnus qushi" qissasida ifoda etdi. Qissaga kiritilgan qaqnus qushi timsolida mamlakat gullab-yashnagan, insonlar baxtli hayot kechirgan buyuk va qudratli koreys davlati ramzini qayta yodga soldi. Qissa bosh qahramoni ustoz – katta avlod, shogird – kichik avlod vakilidir. Ustoz-shogird munosabatlarida an'anaviy qadriyatlar va o'zgarayotgan zamon qabul qilayotgan yangi madaniyat to'qnashuvi kuzatiladi.

6. Yozuvchi nasrida badiiy g‘oyani berishda mumtoz adabiyot namunalari, rus va g‘arb adabiyoti unsurlari kuzatiladi. “Qaqnus qushi” qissasida mifologik tasavvur unsuri – qaqnus qushi, sijo she‘riyatiga xos – olxo‘ri obrazi, Konfutsiychilik ta‘limotiga ko‘ra, ustoz-shogird obrazlari ko‘zga tashlanadi. “Bashariyat o‘g‘li” romani rus yozuvchisi F. Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” hamda “Aka-uka Karamazovlar” g‘oyaviy romanlaridan ozuqalangan.

7. Li Muniyolning “Omadli kun” hikoyasi harbiy boshqaruv davri biroz yumshagan, dag‘dag‘ayu zulumlar biroz ortga chekingan, jamiyatda demokratik harakatlari avj olgan, erkin fikrlarga sekin-asta minbar bo‘shatib berilayotgan davrda nashr yuzini ko‘rdi. Hikoya uslubi, kompozitsiyasi hamda obrazlar tizimiga ko‘ra, yapon anneksiyasi davrida ijod qilgan Xyon Jingtonning aynan shu sarlavhali “Omadli kun” hikoyasiga hamohangdir. Har ikki adib ham dolzarb ijtimoiy muammolar girdobida bosh qahramon ruhiyatidagi g‘oyat sirli lahzalarni mohirona tasvirlay oldilar.

8. Yozuvchi XX asrning ikkinchi yarmi koreys jamiyatda yuz bergan ijtimoiy hodisalarni yoritish, badiiy niyatini berishda tasvirning tashqi turlari peyzaj, portret, diniy-falsafiy ta‘limotlar, makon, zamon, interyer, portret, ichki tasvir turlari – qahramonning ruhiy holati, ma‘naviy olami hamda ramzlar, psixologik tush, an‘anaviy timsol, yangi detallar vositasidan foydalandi.

9. Yozuvchi shaxs erkinligi va huquqlarning buzilishini yopiq makon – harbiylar vagoni, mehribonlik uyi, olis qishloq maktabi binosi, tashlandiq saroy kabilarda tasvirlaydi. Jamoaviy kuchga qarshi zaif inson harakatining chorasizligi, zo‘ravonlik mamlakat ijtimoiy hayotining ko‘rsatkichi sifatida baholanadi. Yopiq makonda keskin harakat qilish, qarshilik ko‘rsatish imkoni chegaralangan. Yozuvchi yopiq makon va deraza ortidagi hayotning bir-birini inkor etishini, mo‘rtligini aks ettirish orqali davr muhitiga o‘z bahosini berdi.

10. Yozuvchi qissa va hikoyalarida asosiy mavzular mavkuraviy o‘zgarishlar davrida inson tabiati, irodasi, axloqiy muammolarga bag‘ishlangan, muallif bu masalalarga tanqidiy yondashadi. Muallif ijodida an‘anaviy qadriyatlarining koreys jamiyatida yuz berayotgan madaniy o‘zgarishlar hamda G‘arb mavkuraviy tushunchalari ta‘siriga tushishi badiiy ifodasini topdi. Jamiyatning axloqiy tanazzuli – ayollar obrazida yanada chuqurlashdi. Oila-erkak-ayol uchburchagida harbiy boshqaruv davri tanazzuli ochib beriladi.

11. Muallif yaratgan yangi – askar, zobit, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, ibodatxona tarbiyalanuvchisi, olibsotar, ayollarning yangi tipi, mehribonlik uyi murabbiyi kabi obrazlarda turli toifadagi insonlar taqdiri, ularning hayot haqidagi tushunchalari, davr muhitiga mos yashash tarzi, ziddiyatli ko‘ngil istaklari o‘z ifodasini topdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FIL.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

КАРИМОВ НОДИРБЕК ШУХРАТ УГЛИ

ПОЭТИКА ПОВЕСТЕЙ И РАССКАЗОВ ЛИ МУНЁЛЯ

10.00.05 – Языки и литература народов Азии и Африки

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.3.PhD/Fil5019.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsuos.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Сайдазимова Умида Турахановна**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Зиямухамедов Жасур Ташпулатович**
доктор филологических наук, профессор

Шодмонов Нафас Намазович
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 по приуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения (Адрес: 100047, г. Ташкент, Мирабадский район, улица Шахрисабз, 16. Тел.: (99871) 233-45-21; факс: (99871) 233-52-24; E-mail: info@tsuos.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована № _____). Адрес: 100060, г.Ташкент, Мирабадский район, улица Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2025 года).

А.М. Маннонов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

Н.Р. Исмагуллаева
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.ф.н. (PhD), доцент

Б.Тухлиев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

ВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировое литературоведение в условиях нынешней глобализации вступило на путь стремительного развития. В связи с этим изучение поэтики художественного произведения на основе мировых стандартов становится одной из наиболее актуальных задач сегодняшнего дня. Особую значимость приобретает исследование поэтики художественного произведения, присущей прозаическим жанрам, которые вступили на путь самобытного развития и прошли этап поисков, а также определение их роли в формировании духовного мира человека. Поскольку «родной язык и литература каждого народа считаются основой его национального духа и самобытности, культурно-просветительского мира и национальной идеи»⁵⁴. Бесценное сокровище – национальные ценности, отраженные в литературе, являющейся основой духовности народа, а также своеобразный художественно-эстетический мир творца – имеют важное значение для воспитания молодого поколения. Разнообразные направления общественного сознания в мировом контексте нашли свое выражение в поисках формы писателя и в его национальном мышлении.

В современном мировом литературоведении на первый план выходит проблема глубокого анализа внутреннего и внешнего мира человека, его достоинства, личности, сложного духовного мира, философского осмысления жизни, психологии человека. Особое внимание уделяется раскрытию образа человека, стоящего в центре художественной литературы, научному толкованию проблем, связанных с его духовным мировоззрением, моральными особенностями, а также выдвигению обоснованных концепций. Во второй половине XX века и на пороге XXI века жанр короткого рассказа в рамках прозаических жанров претерпел изменения в форме и объеме. В изображении духовного мира человека, особенностей его мышления стиль отражения жизненной реальности в характерах, введенных в произведение, претерпел обновление. Изменение композиционной структуры жанра связано с тем, что художественный образ, художественная деталь, хронотоп – изображение времени и пространства – стали строиться на новых принципах. В прозе полностью раскрываются поведение героев и способ развития событий..

В последнем десятилетии XX века – в начале XXI века внимание к изучению корейской литературы было поднято до уровня государственной политики. Усиливается внимание к изучению и пропаганде духовного наследия авторов, ставших великими писателями своего времени. Литераторы мастерски раскрывают с помощью различных художественных средств такие темы, как сложные жизненные ситуации на перекрестках человеческой судьбы, острые социальные проблемы, глубинная сущность психологии

⁵⁴ Мирзиёев Ш.М. Указ Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года №УП-4797 «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои».

человека, *отчуждение* от общества, причины и последствия *одиночества*, загадочный внутренний мир духовно раздробленного человека. В развитии корейской национальной литературы Ли Мунёль занимает особое место. Его повести и рассказы являются бесценным литературным достоянием корейского народа. В повестях и рассказах автора новая интерпретация традиционных мотивов и образов, свободное от высокопарности изложение прозаических произведений побуждает читателя к размышлению. Писатель, сумевший на основе наблюдений передать правдиво, искренне и откровенно художественное выражение действительности эпохи, использует в своих произведениях такие образы, как поезд, автобус, вагон, купе, которые не ограничиваются лишь значением транспортных средств, но отражают в себе огромный смысл, подобный колесу истории.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных Указами и Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 16 апреля 2020 года №ПП-4680 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», Распоряжением Президента Республики Узбекистан от 2 января 2017 года «О создании комиссии по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и пропаганде культуры чтения», а также другими нормативно-правовыми документами, которые касаются данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I «Формирование и пути реализации системы социальных, правовых, экономических инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Изучение рассказов, посвященных внутреннему миру человека, человеческим ценностям, исторической действительности, вопросам нравственности и смысла жизни, стало объектом исследований многих ученых с конца XX века и с начала первого десятилетия XXI века в современной корейской литературе.

Исследователь университета Кёнги Республики Корея Ан Намён⁵⁵ (안남연) в своей научной работе «Проблемы эстетики и идеологии в романах Ли Мунёля» (“이문열 소설 연구 – 본질·미학성장·이데올로기를 중심으로”) подвергает научному анализу проблему идеологического противостояния и его исторических корней в романах писателя. Ученый особенно подчеркивает мастерство писателя, его эстетический подход к описанию хаоса и оценки военной эпохи. Он отмечает искусство гармоничного соединения традиционных образов и мотивов с влиянием западной литературы в

⁵⁵ 안남연, 이문열 소설 연구 – 본질·미학·성장·이데올로기를 중심으로, 2011, 경기대학교 대학원.

художественном отражении жизненной правды как представителя своей эпохи.

Исследователь университета Вонгван Ли Сунчжин⁵⁶ (이승진) в своей работе «Текстологическая критика романа Ли Мунёля “Эпоха героев”» (“한 소설 두 텍스트 – 이문열의 소설 “영웅시대”의 텍스트 비평”) анализирует языковые особенности романа. В научных статьях, посвященных произведениям писателя, исследователь высказывает критические замечания по поводу ограничений (запретов), наложенных на изучение, в частности, языка произведений.

